

## TA'LIM MUASSASALARIDAGI TARBIYA TURLARI VA ULARNING MAZMUNI.

**Tilavoldiyev Shaxobidin Xoldarovich**

*Farg'ona davlat universiteti, harbiy ta'lim fakulteti dotsenti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lim muassasalaridagi tarbiya turlari va ularning mazmuni xaqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *aqliy, ma'naviy-axloqiy, baynalmilallik, aqliy, jismoniy, mehnat, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, g'oyaviy-siyosiy, jinsiy tarbiya.*

Ijtimoiy tarbiya oilaviy, milliy, baynalmilallik, vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnat, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, g'oyaviy-siyosiy hamda jinsiy tarbiya kabi muhim tarkibiy qismlardan tashkil topadi.

Oilaviy tarbiya – bola rivojlanishi uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan, uni ijtimoiy hayotga tayyorlashga, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan oila faoliyati. Oilaviy tarbiya bolaning tug'ilgan kunidanoq boshlanadi, uning to'liq mustaqil shaxs sifatida voyaga yetgunga qadar oila nazoratida davom etadi.

Oilaviy tarbiyada muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo'lishi, ularning tarbiya bobida o'zaro birdamligi va tengligi, bahamjihatlik bilan harakat qilishiga bog'liq. Oilaviy tarbiya his-tuyg'ular asosiga quriladi, chunki tarbiyachilar bolaning eng yaqin kishilaridir.

Oila jamiyat negizi, ma'naviyat beshigidir. Tarbiya asoslari oilada boshlanadi. Ma'naviy va mafkuraviy tarbiyaning ilk tushunchalari ham sog'lom oila muhitida, bobo va buvilar, ota-onalarning an'analari, qadriyatlar orqali singadi.

Oilaning ijtimoiy o'rni, birinchidan, uning moddiy ta'minoti bilan belgilanadi.

Ikkinchi omil – oiladagi psixologik muhitdir.

Uchinchi jihat – bu oilaning ijtimoiy madaniyati darajasidir.

To'rtinchi holat – oilada bolaga munosabat darajasi bilan belgilanadi.

Milliy tarbiya – o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashdir. Masalan, har xil milliy an'analar - hashar, ota-onalarga hurmat, yoshlarga shavqat, qariyalarga muruvvat, milliy odob-axloq meyorlariga itoat qilish, ilm olish, oila mustahkamligiga erishish, ustozlar qadriga yetish, vafot etganlar qabrini ziyorat qilish, xalqqa muhabbat, Vatanni sevish va ardoqlash, askarlik burchini sharaf bilan bajarish, baynalminalchi bo'lish, shirinsuxanlik va shu kabilardir.

Baynalmilallik tarbiyasi – bu o'quvchilarni xalqlar do'stligi ruxida tarbiyalash, ularda boshqa xalq va elatlarning tili, dini va madaniyatiga xurmat tuyg'usini shakllantirish, tolerant (bag'rikenglik) munosabatda bo'lish xislatlarini singdirish va o'zaro xurmat, tinch-totuvlikda yashash qoidalarini o'rgatishdir.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi - «Vatan» tushunchasini shakllantirish, jonajon o'lkaga, Vatanga, xalqiga, milliy an'analari va odatlariga, boshqa millatlarga hurmat va muhabbatni tarbiyalash; millati, Vataniga g'ururni tarbiyalash; mustaqil O'zbekiston

davlatidagi barcha yer usti va yer osti moddiy boyliklarini asrab-avaylash; davlat ramzlari: gimn, gerb, bayroq to'g'risidagi tushunchalarni kengaytirish, har qanday holatda ham ularni ko'z qorachig'iday asrash, shuningdek, eng asosiysi, qo'lda qurol bilan Vatan himoyasiga doimiy shaylik demakdir.

Mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, o'zining qat'iy hayotiy e'tiqod va qarashlariga ega bo'lgan, "vatanparvarlik vaksinasi" bilan emlangan, milliy mentalitetimizga yot zararli ta'sirlarga qarshi turishga qodir yoshlarni tarbiyalash bugun har qachongidan ham muhimdir.

Ma'naviy-axloqiy (yoki axloqiy) tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan

tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni.

Bu yo'nalishdagi tarbiyani tashkil etishda o'quvchilarni ijtimoiyaxloqiy meyorlar mazmunidan xabardor etish, axloqiy meyorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy meyorlar (talab va taqiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

1. O'quvchilarni odob-axloq qoidalari va ijtimoiy axloq meyorlari bilan tanishtirish.
2. Ularda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
3. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularini tarbiyalash va rivojlantirish.
4. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifat (ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehnatsevarlik, bilimolishga intilish, kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, oliyjanoblik, muruvvatlilik, rahmdillik, moddiy va ma'naviy ne'matlarni asrash, kelajakka ishonch bilan qarash va h.k.) larni tarbiyalash.

5. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor, ko'nikma, odatlarni tarkib toptirish.

Axloqiy meyor jamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan qoida hisoblanadi.

Axloq axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyasi sanaladi.

Axloq kishining xulq-atvori, iymon-e'tiqodi, yurish-turishi, fikr mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy tarbiya yo'nalishlaridan biri aqliy tarbiya sanaladi.

Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uningaqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogic faoliyat jarayoni bo'lib, shaxsda tabiat, jamiyat, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadi.

Aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida o'quvchilarni ilm-fan, texnika va

texnologiya sohasida erishilayotgan yutuqlar, yangilik, kashfiyotlardan xabardor etish, ularga ijtimoiy, tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish orqali tafakkur va dunyoqarashni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, moyillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aqliy tarbiyani tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- Shaxsning muayyan hajmdagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirishiga erishish;
- Bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- Aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- Bilishga bo'lgan faollikni kuchaytirish;
- Mavjud bilimlarni muntazam boyitib borish, o'rta ta'lim va maxsus kasbiy tayyorgarlikni oshirish ehtiyojini rivojlantirish;
- Zamonaviy bilimlarni berish asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Jismoniy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi sanaladi.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy-irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy, jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan jarayon.

Bu yo'nalishdagi tarbiyani tashkil etishda o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy ihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, ularda yangi harakat turlari borasida

ko'nikma, malakalarni hosil qilish, yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda, xarakterni qaror toptirish) jismoniy sifatlarni rivojlantirish, shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlash, ularni jismonan rivojlantirish;
- O'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- O'quvchilar tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mustahkamlash;
- O'quvchilarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- O'quvchilarda irodaviy sifatlari(kuch, chaqqonlik, dadillik, qat'iyatlik va b.sh.)ni rivojlantirish;
- O'quvchilarda axloqiy sifatlar (intizomlilik, mas'uliyatlik, jamoa bilan bo'lish)ni tarbiyalash;
- O'quvchilarda JT va sport bilan doimiy va muntazam shug'ullanish ehtiyojini shakllantirish;
- O'quvchining jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlash, o'z sog'ligiga ongli munosabatni tarbiyalash.

Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiyasi sanaladi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, o'quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir.

Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnat va mehnat faoliyatiga ongli munosabatni, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma, malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir.

Mehnat tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- Shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish;
- O'quvchilarda mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- O'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;
- O'quvchilarni nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish;
- O'quvchilarni turli mazmunga ega mehnat ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;
- O'quvchilarda mehnatga muhabbat uyg'otish, ularni mehnatsevarlikka, tejamkorlikka o'rgatish.

O'quvchilarni mehnatga layoqatli va mehnatsevar qilib tarbiyalashda ularni mehnatda mashq qildirishga jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Estetik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Estetik tarbiya (lot. "estezio" go'zallikni his etaman) - shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishni o'rganish, ularning estetik didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayonidir.

Estetik tarbiya (nafosat tarbiyasi) ning maqsadi shaxsning voqelikka estetik munosabatini shakllantirishdan iborat.

Estetik tarbiyani olib borishda o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari, go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nafosat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'quvchilarga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklari, ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish;
- O'quvchilarda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish;
- O'quvchilarda go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, estetik qobiliyat va madaniyatni shakllantirish.

Shaxsni har tomonlama kamol toptirishda ekologik tarbiya ham kuchli tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu sababli ijtimoiy tarbiya jarayonini bu yo'nalishdagi pedagogik faoliyatsiz tasavvur etish qiyin. "Ekologiya" tushunchasi ilk bor nemis olimi E.Gekkel tomonidan qo'llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismidir.

O'quvchilarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish, mehrmuhabbatni uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

1. O'quvchilarning ekologik bilimlarini yanada oshirish.
2. Tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurini boyitish.
3. O'quvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to'g'risidagi e'tiqodni shakllantirish.
4. O'quvchilarda ekologik faoliyat ko'nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Iqtisodiy tarbiya – ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila budjetini shakllantirish, oila xo'jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va h.k.) ni tashkil etish ko'nikma, malakalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda quyidagi vazifalar bajariladi:

- 1) o'quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xo'jaligini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, kichik va o'rta biznes, ijara, shartnomalar va ularni tuzish, banklar, bank operatsiyalari, byudjetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes-reja va boshqalar)ni berish;
- 2) ularda iqtisodiy ong va tafakkur, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash;
- 3) kasbiy yoki ishlab chiqarish malakalarini shakllantirish;
- 4) ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;
- 5) o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish;
- 6) ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishiga erishish.

Huquqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uni samarali tashkil etish huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy sharti sanaladi. "Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari,

xalqaro tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va h.k.) faoliyati haqida o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir".

Huquqiy tarbiya shaxs ega bo'lgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma, malakalarini hosil qilish, unda huquqiy ong sifatleri va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir.

Huquqiy ta'lim-tarbiyani tashkil etishda quyidagi vazifalar hal etiladi:

- O'quvchilarga huquqiy meyorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;
- ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj va huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;
- o'quvchilarda huquqiy faoliyat ko'nikma, malakalarni hosil qilish;
- huquqiy madaniyat ko'rinishlari (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod, huquqiy salohiyat) va huquqiy madaniyat elementlari (huquqiy meyor, qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri baholash,
- ijtimoiy harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish,
- davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, fuqarolik huquq, burchlarini hurmat qilish,
- yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish,
- har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

O'quvchilar "O'zbekiston davlat va huquqi asoslari", "Konstitutsiyaviy huquq" o'quv predmetlari asoslarini o'rganishda O'zR Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari

tizimi, vakillik hokimiyati organlari, O'zR Prezidenti, Respublika Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi kabi organlar faoliyatini o'rganish, shuningdek, O'zR ichki va tashqi siyosati mohiyatini o'zlashtirish, xalqaro huquqiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishi tartibi bilan tanishar ekanlar, ayni vaqtda ularda nafaqat huquqiy ong balki siyosiy ong ham shakllanadi.

G'oyaviy-siyosiy tarbiya – o'quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O'zR Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, respublikaning ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchilarda siyosiy faoliyat ko'nikma, malakalarini tarkib toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat jarayoni

Jinsiy tarbiya – "bolalar, o'smirlar va yoshlarda jins masalalariga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirishga qaratilgan tibbiy, pedagogic tadbirlar tizimi"ga ko'ra tashkil etiladigan jarayon.

Bu yo'nalishdagi tarbiyaning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi bolalar, o'smirlarda erta yetilish, jinsiy mayllar erta uyg'onishining oldini oladi.

Qolaversa, jinsiy tarbiya davrida o'g'il va qiz bolalarga o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari ko'magida shaxsiy gigiyenaga rioya qilishga doir bilimlarning berib borilishi, ularni yoshlikdanoq o'rinda to'g'ri yotishga, ichki kiyimlarning ozoda bo'lishi, tananing

toza tutishga odatlantirish ular tomonidan shaxsiy salomatlikni saqlash malakalari, reproduktiv madaniyatni o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

Metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan jinsiy tarbiya yosh avlodning fiziologik jihatdan to'g'ri rivojlanishiga, nikoh va oilaning mustahkam bo'lishiga, reproduktiv (zurriyod qoldirish) salomatlikka ega bo'lishiga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2023—2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish KONSEPSIYASI, 2023 yil №267 sonli qaror.
3. Sh.Tilavoldiyev, «Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari», o'quv darsligi, Farg'ona, 2023 y.
4. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika/–Toshkent "O'qituvchi" nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2010 y.
5. Ochilov M., Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: "Nasaf" nashriyoti. 2000 y.